

## INKLYUZIV TA'LIMDA RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING PSIXOLOGIK MASALALARI

*Arslanova Marxabo G'ulomovna  
Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani 15- maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Maqolada alohida ta'lism ehtiyoji bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish jarayoni, ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilarning ta'litarbiyasi, o'quv jarayonining samarali ishlashi uchun maqbul sharoitlarni yaratish yoritib berilgan. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilar bilan ishslashda ota-on, o'qituvchi, psixolog, maxsus pedagogning faoliyati haqida yozilgan. Inklyuziv sinf o'qituvchisi va maxsus o'qituvchi ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan ishslash jarayoni haqida tushuncha berilgan.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lism, alohida ta'lism ehtiyoji bo'lgan bolalar turlari, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar, maxsus pedagog, psixologik-pedagogik tadbir, ota-onalar bilan ishslash, korreksion mashg'ulotlar.

### KIRISH.

Inklyuziv ta'linda bola ta'lism jarayonining markaziga qo'yiladi. Bunda alohida yordamga ehtiyoji bo'lgan bola salohiyati - salomatligi, xavfsizligi, darslarda ishtirok etishi, gender tengligi va inklyuzivlik (ya'ni imkoniyatlari cheklangan bolalar oddiy maktablarda ta'lism olishi) kabi ko'rsatkichlar bilan o'lchanadi. Inklyuziv ta'linda o'qituvchilar tegishli ko'nikmalarga ega bo'lishi lozimligi va ta'lism samaradorligini oshirish uchun o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan uslublaridan foydalanishi mumkinligi, shuningdek, maktabda bolalar uchun qulay, sog'lom va xavfsiz muhit yaratish va binobarin, ular ota-onalari ko'magida salohiyatini to'liqroq namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'lishi ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alovida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lism-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2021-yil 12-oktabrdagi VM 638-son qarorini chiqardi. Unga ko'ra umumta'lism maktablarida tashkil qilingan inklyuziv ta'lism sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga quyidagi toifadagi bolalar qabul qilinadi:

- eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db);
- gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'limgan bolalar);
- ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar (ko'rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'limgan bolalar);

- somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar); nutqida og‘ir nuqsonlar bo‘lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish); tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan bolalar (bolalar tserebral falaji, skolioz, poliomiyelit, miopatiya, osteomiyelit, amputatsiya, bo‘y o‘sishining yetishmovchiligi — pakanalik);
- aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-xarakat tizimidagi buzilishi bo‘lgan bolalar; aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (o‘zi harakat qila oladigan yoki qo‘sishimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar tserebral falaji);
- intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar; hulq-atvor va ruhiyatning qo‘pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan bolalar; intellektual rivojlanishi saqlanib qolingga, tutqanoq holatida bo‘lgan bolalar (agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq 1 oyda 1-martadan oshmagan paytda).

O‘sib kelayotgan yoshlar orasida ruhiy rivojlanishi orqada qolgan bolalar mavjud bo‘lib, ularning sifatlari ta’limga jalb etilishi borasida ham qator ijobjiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Alovida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarning jamiyatning kundalik hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta’minlovchi maxsus va inklyuziv ta’lim tizimi mazmuni va shakllari takomillashtirilmoqda. Alovida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bola maxsus yondashuvni talab etadi. Bolani shakllantirishni samarali amalga oshirish uchun har bir yosh davrlarida bola rivojlanishining psixologik qonuniyatları haqidagi bilimlarni chuqur egallash darkor. Ruhiy rivojlanishning orqada qolishi deganda, ruhiy rivojlanishning bola yoshiga to‘g‘ri kelmasligi tushuniladi. Bunday orqada qolishning asosiy sabablariga bosh miyaning minimal, yuzaki, yengil zararlanishi, tug‘ilish vaqtidagi, homila davrida yoki go‘dakning ilk yoshidagi zararlanishlari yoki kuchli shamollashi natijasida yuzaga keladi. Inklyuziv sinfda o‘quvchilar orasida ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar ham uchrab turadi. Ularning bilish faoliyati-intellekti mantiqiy tafakkuri, idroki, xotirasi, ixtiyoriy diqqati, ish qobiliyati va boshqa hislatlari bilan sog‘lom bolalardan ajralib turishadi. Bularning barchasiga birinchi o‘rinda markaziy nerv sistemasining kasalliklari, zararlanishi natijasida kelib chiqadi, shu sabab ruhiy rivojlanishi sustlashadi. Bunday bolalarda hissiyot, iroda sferasidagi kamchiliklar birlamchi o‘rinda, aqliy zaiflik esa, ikkilamchi hodisa bo‘lib hisoblanadi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar asosan ikki guruhga bo‘linadi, birinchi guruxi yengil darajadagi ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar, 2-guruhi ruhiy rivojlanishi sezilarli darajada namoyon bo‘ladigan bolalar. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni o‘qishi past bo‘ladi, biroq bu holat o‘z vaqtida va to‘g‘ri

aniqlansa, bolalarga tegishli yordam tashkil etilsa, ular ommaviy maktab dasturini o‘zlashtira oladilar. Faqat ularda sog‘lom bolalarga nisbatan maktabga adaptatsiya bo‘lish jarayoni biroz sust kechadi. Inklyuziv sinf o‘qituvchisi va maxsus o‘qituvchi ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan ishslashda quyidagilarga e’tibor berishi lozim. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning ma’lum materialni egallashi uchun ko‘p vaqtning sarflanishini hisobga olishi va mavzuni o‘zlashtirishda takrorlashni sog‘lom bolalarga nisbatan ko‘paytirish, ya’ni ruhiy rivojlanishi sustlashgan bola ko‘proq berilgan mavzuni asosini takrorlasa bolada ko‘nikma hosil bo‘ladi. Masalan alifbe darsida “A” tovushi va harfi o‘tilsa “A” tovushini o‘zlashtirishga va “A” tovushiga oid rasmlarni nomini aytib berishni takrorlatish maqsadga muvofiq. Keyinchalik ko‘nikma hosil bo‘lgandan so‘ng “A” harfini yozishga va “A” harfi qatnashgan so‘zlarni o‘qishga va yozishga o‘rgatish natijasida ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda sog‘lom bolalarga nisbatan tenglashish imkoniyati paydo bo‘ladi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarga sog‘lom bolalarga qo‘yiladigan talabni qo‘ymaslik lozim. Ko‘rish orqali qabul qilinadigan materiallar mumkin qadar kam elementlardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiq sanaladi chunki ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar ko‘p elementli materiallarni idrok qilishga qiynalishadi. Yangi materiallar berish vaqtida, bolalar diqqatini chalg‘itadigan qo‘zg‘atkichlar bo‘lmasligi kerak. Yangi material berish paytida bolaning oldida aynan mavzuga oid ko‘rgazmalik materiallar yoki rasmlar bo‘lsin boshqa darsliklarini imkon qadar oldida turmasligini ta’minlash zarur.

Shundagina ularning diqqati ortiqcha elementlarga tarqalib ketmaydi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan o‘quvchilarni o‘qitishda tizimlilik va izchillik tamoyili bilan bilim, ko‘nikma va malakalarni ma’lum tartibda, o‘quv materialining har bir elementi boshqalari bilan mantiqan bog‘langan, keyingisi esa avvalgisiga asoslangan tizimda shakllantirilishini talab qiladi. O‘quv jarayonining samarali ishlashi uchun maqbul sharoitlarni yaratish prinsipiiga rioya qilishning talab etadi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar diqqat barqarorligining past darajasiga ega, shuning uchun bolalar e’tiborini diqqat barqarorligini rivojlantirishga yo‘naltiruvchi metodlarni dars davomida ko‘proq qo‘llash kerak. Ularga dars mashg‘ulotini egallah uchun ko‘proq namunalar bilan ishlashi, berilgan topshiriqni qayta-qayta bajartirib bilim va ko‘nikmasini shakllantirish lozim. Lekin bajartirishga majburlamaslik kerak. Bola tez o‘qishdan charchabsovub qolishi mumkin. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni ota-onalari bilan ishlash juda muhim. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning ota-onalari uyda bolani nimani o‘rgatish kerakligi va qanday o‘rgatish kerakligi to‘g‘risida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi va maxsus o‘qituvchidan doimiy pedagogik maslahatlar olib turishi kerak bo‘ladi.

O‘qituvchilar faoliyatida psixologik-pedagogik tadbirlar majmuasida otaonalarning rolini faollashtirish ta’minlaydi: Bu faollik nima uchun kerak? Bolaga

qo‘yiladigan talablarining birligi uchun kerak. Darsda o‘zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash uchun uyg‘a berilgan vazifalarni albatta ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan birga ota-onalar o‘tirib ishlaydilar. O‘qituvchining bolaga qo‘yadigan talabi ya’ni undan qay darajada vazifani talab qilishini ota-ona ham bilishi kerak. Chunki o‘qituvchi ham ota-ona ham bolaning imkoniyatlarini qay darajadaligini bilgan holda vazifa beradi va imkoniyati darajasida vazifani nazorat qiladi. Sog‘lom bolalarning ota-onalarining alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar va ularning oilalariga nisbatan tolerantlik munosabatni shakllantirishga qaratilgan ishlarni ham amalga oshirish muhimdir. Bolaga uning shaxsiy hususiyatlarini hisobga olgan holda o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish; Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda turli fiziologik ehtiyojlarini, individual hususiyatlarini hisobga olish. Darsda uzoq muddat o‘tirishga qiynalishi, charchab qolishi mumkin bunday vaziyatda tyutor yoki maxsus o‘qituvchi, psixolog tomonidan korreksion mashqlar o‘tiladigan xonaga yoki psixologning xonasida dam olish burchaklari bo‘lsa u yerga olib chiqib bolaga sharoit yaratib berish lozim. Turli harakatlarni amalga oshirishi, diqqatini tez-tez buzilishi yoki diqqatini jamlay olmasligi kabi hususiyatlarini hisobga olish va shunga qarab ta’limdagagi korreksion ishlarni amalga oshirish lozim.

Bolaning sog‘lig‘ini himoya qilish va mustahkamlashni kuzatib boring. Sinfda jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat va sog‘lomlashtirish o‘zgarishi, dinamik soatlar, ochiq havoda mashg‘ulotlarni tashkil etish orqali psixofizik ortiqcha yuklarning, hissiy buzilishlarning, bolalarning shikastlanishining oldini olish mumkin. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning oddiy kichik bir yutuqlarini ham doimiy e’tirof etib borish kerak. Bu ularning o‘quv faoliyatiga qiziqishiga va darsda faol qatnashishiga turtki bo‘ladi. Ham boshqa bolalar bilan tengligini, uning ham yutuqlari borligini his qiladi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni har qanday qo‘llab-quvvatlash bu ularning kognitiv qiziqishni oshirishga, xulq-atvorning o‘zboshimchalik shakllarini kamaytirishga, o‘quv faoliyatining rivojlantirishga olib keladi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning aqliy rivojlanishidagi kamchiliklarni muvaffaqiyatli tuzatishning muhim sharti-bu to‘g‘ri tashkil etilgan shart-sharoitlarda, mumkin bo‘lgan pedagogik ta’sirning yetarliligi, bolaning individual xususiyatlariga mos keladigan o‘qitish usullari, ya’ni rivojlanishni rag‘batlantiradigan va bolaning haqiqiy imkoniyatlariga mos keladigan o‘qitish usullarini to‘g‘ri tashkil etish natijasida inklyuziv sinflardagi ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni aqliy jihatdan rivojlanish mumkin. O‘quvchilarning rivojlanish darajasini oshiradigan, bilimga bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otadigan sinfdan tashqari, guruhli ishlarni tashkil etish yoki bayram tadbirlarida ishtirokini ta’minlash ham ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni sinfda faolligini oshishiga sabab bo‘ladi. Ruhiy holati tufayli o‘quvchi ushbu darsda ishlay olmaydigan hollarda, materialni unga darsdan tashqari alohida maxsus o‘qituvchi tomonidan qayta tushuntirib beriladi. Yangi o‘quv materialini ham

o‘zlashtirishiga qarab qismlarga bo‘lib tushuntirilishi lozim. Chunki bittada hamma ma’lumotlarni bolaga bersangiz, unda chalkashmovchilik bo‘ladi. Ma’lumotlarni egallash koeffisenti pasayadi. O‘qituvchining savollarini aniq shakllantirilishi kerak, xatolarning oldini olish bo‘yicha ishlarga katta e’tibor berish kerak: Yuzaga kelgan xatolar nafaqat tuzatiladi, balki o‘quvchi bilan birgalikda tahlil qilinishi kerak. Nima uchun buni xatoligini, asli qanday holatda to‘g‘ri bo‘lishini tushuntirib ko‘rsatib berishi kerak.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan o‘quvchilar darsda halaqit berib turib yoki yurib ketsa unga “o‘tir” deb qattiqqo‘llik qilmasdan turgan vaqtida unga darsga oid topshiriq berib yuborishi mumkin. Masalan “yonimga kelib daftarlarni tarqatishimga yordamlash” yoki “yig‘ishtirib olishimga yordamlashib yubor”, sinfda mavzuga oid doskada biron bir topshiriqni aytib “yoziб keyin joyingga o‘tir”, “menga (sinfdoshlarining ismini aytib) daftarini olib kelib berib keyin joyingga o‘tir” deb bolani chalg‘itib to‘plangan energiyasini chiqartirib keyin joyiga asta o‘tirishiga erishish. Darsdagi muayyan vazifalarni agar bola bajarishga qiyalsalas bajarishga yordam berishi. Masalan o‘qituvchi oddiy sog‘lom bolalarga ham agar yozishida, o‘qishida qiyalsalas unga yordam berishi mumkin. Shular qatorida alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolaga ham ko‘rsatma berib vazifani bajarishiga yordam berishi mumkin. Inklyuziv ta’lim vazifasi bolalarning qobiliyatları va holatidan qat’i nazar, ularning barchasiga sifatlari ta’lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo‘lishlari uchun oilada yashashlari va o‘z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta’lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta’lim olishi, o‘zlashtirishda qiynalayotgan bo‘lsa, o‘qish va yozishga o‘rganish uchun maxsus yordamga ega bo‘lishi, darslarga qatnamay qo‘ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko‘rsatilishini kafolatlaydi. Inklyuziv maktablar maqsadi alohida yordamga muhtoj bolalarga ta’lim berish va ular oldida turgan to‘siqlarni bartaraf etishdan iborat.

Inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarda o‘qitish va tarbiyalash jarayoni o‘quvchilarning alohida xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. O‘quvchilarning bilimlari ulardagi nuqsonlarning o‘ziga xosligini hisobga olgan holda davlat ta’lim standartlariga muvofiq baholanadi. Ta’lim-tarbiya jarayoni davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘quv rejasi va dastur asosida maxsus korreksion tuzatish usullaridan foydalanilgan holda olib boriladi. Inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflardagi o‘quvchilarga individual ta’lim dasturlarini o‘zlashtirishga yordam ko‘rsatish maxsus pedagoglar va tyutorlar (yordamchi pedagog xodimlar) tomonidan amalga oshiriladi. Har bir inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar ochilgan maktab uchun alohida

maxsus pedagog shtat birliklari ajratiladi. O‘quvchilar bilan individual ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish, maxsus pedagoglar tomonidan ta’lim jarayonidagi barcha darslarda, sinfdan tashqari va boshqa tadbirdarda amalga oshiriladi. Inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar ochilgan maktablarda o‘quvchilarga individual ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish, rivojlanishiga to‘sinqilik qilayotgan omillarni aniqlash, ularga turli ko‘rinishdagi psixologik yordam berish maqsadida maxsus yordam ko‘rsatish xonalari tashkil etiladi. Maxsus yordam ko‘rsatish xonalari zarur maxsus jihozlar bilan ta’milanadi. Har bir o‘quvchi uchun umumiyligi o‘rtasi ta’lim dasturi va maxsus (korreksion) ta’lim dasturidan kelib chiqib maktab tomonidan tasdiqlanadigan yillik reja va mashg‘ulotlar jadvali tuziladi. Bunda o‘quvchining individual psixojismoni xususiyatlari, qiziqishlari hamda psixologik-tibbiypedagogik komissiyaning tavsiyalari inobatga olinadi.

O‘quvchilarni o‘qitish metodikasini ishlab chiqishda quyidagilar inobatga olinadi:

- tyutorning ta’lim jarayonida to‘liq yoki qisman ishtiroki zarurati;
- yengillashtirilgan individual kun tartibini (topshiriqlar hajmi, hafta davomida)
- qo‘sishma dam olish kuni va boshqalar) tashkil etish;
- o‘quvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqib dars mashg‘ulotlarini tuzish;
- umumrivojlantiruvchi va fanlar yo‘nalishidagi mashg‘ulotlarni individual va guruh shaklida tashkil etish; psixolog, maxsus pedagog va boshqa mutaxassislarning maktabdan va sinfdan
- tashqari korreksion-rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarini tashkil etish.

Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan metod va vositalar bolalarning har tomonlama aqliy, jismoniy rivojlanishini ta’minalashga va yetuk shaxsni tarbiyalashga qaratiladi.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarda Xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish Konsepsiysi. (<https://lex.uz/docs/-5044711>)
2. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujatlari milliy bazasi. Lex.uz
3. «Alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi [PQ-4860](#)-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori.
5. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya mazmuni va jarayoni. L.R.Gaynudinova umumiyligi tahriri ostida M.Kasimova K.Jo‘rboev Toshkent 2022
6. Deti s zaderjkoy psicheskogo razvitiya. T.A.Vlasova, N.A.Spina tahriri ostida. M., 1984.
7. K.S.Lebedinskaya, G.P.Bartin, M.T.Dunayeva. Aktualniye problemi diagnostiki zaderjki psicheskogo razvitiya detey. M., Pedagogika, 1982.
8. S.D.Zabramnaya. Otbor umstvenno otstalix detey v spetsialniye uchrezheniya.
9. M., Prosvesheniye, 1988.